FARG‘ONA VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI











# FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022-YIL YANVAR-IYUL***
***(DASTLABKI MA‘LUMOT)***



# Farg‘ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022-yil yanvar -iyul oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida Farg‘ona viloyati korxonalari tomonidan 16 267,5 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,5 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,1%ni tashkil etdi.

| 0,3% | 93,1% | 5,8% | 0,8% |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | 2021-yil yanvar-iyul | 2022-yil yanvar-iyul |
|---|---|---|
| B | 73,5% | 18,5 % |
| C | 101,4% | 105,4 % |
| D | 112,8% | 124,1 % |
| E | 69,8% | 146,7 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 5,4 %ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**yanvar-iyul**

**2022-yil**
**45,7 mlrd. so‘m**

**2022-yil**
**18,5%**

**2021-yil**
**71,2 mlrd. so‘m**

**2021- yil**
**73,5%**

**B**

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45,7 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

| 2021-yil | 2022-yil |
| --- | --- |
| B | B |
| 0,5% | 0,3% |

**yanvar-iyul**

## Ishlab chiqaradigan sanoat

| mlrd. so‘m | yanvar-iyul | FHI,%da |
|---|---|---|
| 12 082,3 mlrd.so‘m | 2021-y. | 101,4 % |
| 15 148,3 mlrd.so‘m | 2022-y. | 105,4 % |

*2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 148,3 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,1 %ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-iyul** 93,0%

**2022-yil yanvar-iyul** 93,1%

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2021-yilning yanvar-iyul oylarida – 0,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 15,4 % (12,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 20,5% (26,0%) va quyi texnologiyali – 56,9% (53,4%)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,4 % (2021-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 82,6%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 39,3% (2021-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 128,7 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 13,4% (2021-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarishning ulushi – 13,1 % (2021-yilning yanvar–iyul oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 84,0 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari




































*2022-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 113,3 ming tonna avtomobil benzini (2021-yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 17,9%ga kamaygan ), 172,0 ming tonna dizel yoqilg`isi (35,6 % kamaygan), 66,7 ming. tonna kalava ip mahsulotlari (2,1%ga kamaygan) hamda 32614,7 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (20,8%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-iyul | 2022-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Avtomobil benzini, ming t** | 131,2 | 113,3 | -17,9 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 151,1 | 133,9 | -17,2 |
| **Paxta chigiti, ming t.** | 27,4 | 45,4 | 18,0 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 12,2 | 10,3 | -1,9 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




### Karbamid Ming. t

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 75,3 | 72,1 |



### Dizel yoqilg‘isi Ming. t

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 207,6 | 172,0 |

### Portlandsement . t




| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 564,8 | 505,8 |

### Etil spirti Ming. l



| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 9757,0 | 7561,0 |

*Farg‘ona viloyatida 2022-yil yanvar-iyul oylarida jami 72,1 ming tonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarish 172,0 ming tonna , portlandsement ishlab chiqarish 505,8 ming tonna . Etil spirt ishlab chiqarish 7561,0 ming litrni tashkil etgan .*

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 69,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati 57,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4%ni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 1 456,2 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 11,2 %ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 1770,4 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 10,9 %ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 995,6 mlrd.so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 148,8 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 13,2 %ga o'sgan.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 40,5 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 32,4 mlrd.so‘mni tashkil etib 8,1 mlrd. so‘mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 3789,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 29,2 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 5629,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 34,6 %ni tashkil etdi va 5,4 punktga ko‘paydi .*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 %ni ya’ni jami 489,1 mlrd.so‘mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 3,5%ni tashkil etib 572,0 mlrd.so‘mga tengdir. Farg‘ona viloyatida kiyim ishlab chiqarish o‘tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 82,9 mlrd.so‘mga ortgan.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (farmasevtika)

*2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 36,8 mlrd.so‘mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida Farg‘ona viloyati bo‘yicha 21,9 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 0,1 %ni, tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 1 327,7 mlrd.so‘mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 10,2 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari jami ishlab chiqariladigan sanoatining 5,4 %ni tashkil etib, 878,8 mlrd.so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,9 %ni ya‘ni 252,8 mlrd.so‘mni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat o‘tgan yilga nisbatan 28,9 mlrd.so‘mga ko‘paygan va 281,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 945,2 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 186,1 mlrd .so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-iyul | 2022-yil yanvar-iyul | Farqi (+/-) |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 214,1 | 220,0 | 5,9 |
| Issiqlik energiyasi, ming.gkal | 970,9 | 820,0 | -150,9 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 128,3 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ini) tashkil etdi.




| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-iyul | 2022-yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m* | 9,4 | 12,9 | 3,5 |
| Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln.so‘m* | 10,1 | 17,5 | 7,4 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 3,5 mlrd.so‘m yoki 37,5 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 7,4 mlrd. so‘m va 5,5%ga ko‘paygan.

# Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5128,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 109,8%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 31,5%ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

| | |
|---|---|
| **2021-yil yanvar-iyul** | **38,4%** |
| **2022-yil yanvar-iyul** | **31,5%** |

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

| | |
|---|---|
| **2021-yil yanvar-iyul** | **59,8%** |
| **2022-yil yanvar-iyul** | **63,3%** |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 29,3 mlrd.so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 15,7%ni va Uchko'prik tumanida 14,6%ni tashkil etdi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo‘qon shahriga to‘g‘ri kelib, 807,3 mlrd.so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 15,7 %i, Farg‘ona shahrida 694,1 mlrd.so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 13,5 %i shuningdek, Uchko‘prik tumanida 748,5 mlrd. so‘mlik, 14,6 %ni tashkil etdi.*




*4 988,0 mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar-iyul*

*5 128,8 mlrd. so‘m*

*2022-yil yanvar-iyul*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **101,0%**

**2022-yil** **109,8%**

## Farg‘ona viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Farg‘ona shahriga to‘g‘ri kelib, 23,2%ni, shuningdek, Qo‘qon shahri 18,7%ni, Toshloq tumani 12,9%ni, Uchko‘prik tumani 7,1% tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2021-yil**
*12 994,7 mlrd.so‘m*

**2022-yil**
*16 267,5 mlrd.so‘m*

*yanvar-iyul*



**2021-yil** 102,0%

**2022-yil** 106,5 %



## Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib, 10,8% shuningdek, Qo'qon shahri 15,6 %, Farg'ona shahri 15,6 %ni tashkil etadi.*

**2983,7** mlrd. so'm

*2021-yil yanvar-iyul*

**3249,0** mlrd. so'm

*2022-yil yanvar-iyul*




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** 103,7 %

**2022-yil** 107,8 %



## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 21,5 %ni, shuningdek, Qo‘qon shahri 15,1% ni, Farg‘ona shahri esa 10,0 %ni tashkil etdi.*




*1 969,7 mlrd.so‘m*

*2021-yil yanvar-iyul*

*1 850,5 mlrd.so‘m*

*2022-yil yanvar-iyul*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **97,4 %**

**2022-yil** **114,5 %**

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg‘ona shahrida (12577,0 ming.so‘m), Qo‘qon shahrida (11665,8 ming.so‘m) hamda Toshloq tumanida (9992,0 ming.so‘m) ,Quvasoy shahrida (7871,6 ming.so`m),Uchko‘prik tumanida (4838,7 ming so‘m).*




### Farg‘ona viloyati

2021-yil — 3387,3 ming. so‘m

2022-yil — 4156,5 ming. so‘m



2021-yil — 100,2%

2022-yil — 104,4%

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1310,5 ming.so‘m bo‘lgani holda, Qo‘qon shahrida – 3095,5 ming.so‘mni, Toshloq tumanida 1802,2 – Uchko‘prik tumanida 3137,5 – Farg‘ona shahrida 2308,1 ming so‘mni, tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2021-yil**
1300,2 ming. so‘m

**2022- yil**
1310,5 ming. so‘m



**2021-yil** 99,3 %

**2022-yil** 107,6 %



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022-yilning yanvar -iyul oylarida %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 385,2 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,3 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, So‘x, Yozyovon tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Furqat tumani (94,1%), Buvayda tumani (85,0%), Uchko‘prik tumani (84,4%),Bog‘dod tumani (77,6%), Rishton tumani (68,6%),tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Toshloq tumani (11,9%),Farg‘ona tumani (15,6%), Quva tumani (23,0%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 11124 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 10450 faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1427 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 13,7 %) Qo‘qon shahriga, 1218 tasi (11,7%) Farg‘ona shahriga, 1037 tasi (9,9 %) Marg‘ilon shahriga, 696 tasi (6,7%) Uchko‘prik tumaniga, 635 tasi (6,1 %) O‘zbekiston tumaniga, 625 tasi (6,0 %) Dang‘ara tumaniga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

**2021-yil** — 1395 dona

**2022-yil** — 1104 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2021-yil** — 9934 faol dona

**2022-yil** — 10450 faol korxona